

“TANOVAR” – BU HAQIQIY FALSAFIY ASAR

Qambarov Abdumutal Ahadjonovich

*Farg‘ona davlat universiteti falsafa kafedrasi professori,
falsafa fanlari doktori (DSc)*

Tojimamatova Odina

*Marg‘ilon shaxar 8-BMSM o‘qituvchisi
FarDU magistri*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek ijrochilik san‘atida keng tarqalgan xalq va mumtoz aytim-ashula va cholg‘u yo‘llarida ijro etiladigan janrlardan biri “Tanovar” haqida ma‘lumot beriladi. “Tanovar” o‘zbek xalqi ongida tarix, o‘zlik, ijtimoiy, hissiy, milliy o‘ziga xos xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan falsafiy asar bo‘lib, bu ijod o‘zbek xalqining og‘zaki va kasbiy ijodiyoti faoliyatidir. Shuningdek, ushbu maqolada XIX asr oxirida o‘zini namoyon qilgan va bugungi kungacha rivojlanib kelayotgan o‘zbek musiqa folklorining namunalaridan biri ekanligi tahlil qilinadi.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация об одном из жанров «Тановар», который широко используется в узбекском исполнительском искусстве, исполняется в народных и классических народно-музыкальных формах. «Тановар» - философское произведение, воплощающее в сознании узбекского народа историю, самобытность, социальные, эмоциональные, национальные особенности, и это произведение является деятельностью устного и профессионального творчества узбекского народа. Также в данной статье анализируется, что это один из образцов узбекского музыкального фольклора, возникший в конце XIX века и развивающийся по сей день.*

Annotation. *This article provides information about one of the genres “Tanovar”, which is widely used in Uzbek performing arts, performed in folk and classical folk music forms. “Tanovar” is a philosophical work that embodies history, identity, social, emotional, national characteristics in the consciousness of the Uzbek people, and this work is an activity of oral and professional creativity of the Uzbek people. This article also analyzes that this is one of the examples of Uzbek musical folklore, which arose at the end of the 19th century and is developing to this day.*

Kalit so‘zlar: *tanovar, aytim-ashula va cholg‘u yo‘llari, o‘zbek musiqa folklori, musiqa, ijro, qalb, dard, orzu-armonlar, shodligiyu quvonch, nafosat va nazokat, baxt va qudrat.*

Ключевые слова: *тановар, песни и музыкальные инструменты, фольклор*

узбекской музыки, музыка, исполнение, сердце, боль, мечты, счастье и радость, изящество и грация, счастье и сила.

Key words: *tanovar, songs and musical instruments, folklore of Uzbek music, music, performance, heart, pain, dreams, happiness and joy, elegance and grace, happiness and strength.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION)

Istirobli dardlarni o‘z ichiga olgan bir kuy borki, bu kuy “Tanovar” deb nomlanadi. Tanovar qadimda ichkarida azob chekkan ayolning sevgisi ma’n qilingan, doimo pinhon saqlashga majbur etilgan muxabbat haqidagi kuydur. Shuningdek, o‘zbek ijrochilik san’atida keng tarqalgan xalq va mumtoz aytim-ashula va cholg‘u yo‘llaridir.

Odatda “Tanovar” iborasi ikki so‘zdan tashkil topgan: “Tan” jismni, “Ovar” – esa zavq olib kelish ma’nolarini kelsa, boshqa bir manbada “Tanovar” – forscha so‘z bo‘lib “Jasur, qudratli, kuchli” degan ma’nolarni anglatgan. Farg‘ona vodiysida “Tanovar” keng tarqalgan bo‘lib, o‘n beshdan ortiq ashula va cholg‘u yo‘llari ma’lum. Bugungi kunda “Tanovar”ning ashula yo‘llari ommaviylashgan.

Tanavor o‘ninchi bor, yuzinchi bor ijro etilsin, baribir har gal yurakni nishonga oladi. U tog‘lar vodiysidan, maysalar bag‘ridan uchib borayotganday. Sharsharalar tog‘lardan qoyama-qoya tushib kelayotganday. Oppoq yelkanli kemaday to‘lqinlar ustida suzib borib, dengizga tushadi. Go‘yo humo qush sohilga kelib qo‘nganday. Bir ta’zim, bir tabassum bilan Sizni maftun etadi[1,6].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ /METHODS)

Tanovar XX asrda N.Mironov, V.Uspenskiy, YE.Romanovskaya, A.Kozlovskiy, Y.Rajabiy tomonidan nota olingan. Kompozitor A.Kozlovskiy 1936 yili H.Nosirova ijrosida “Tanovar”ni nota olib, uning asosida xonanda va simfonik orkestri uchun qayta ishlagan (ushbu asar Halima Nosirova ijrosida A.Kozlovskiy dirijyorligida simfonik orkestri jo‘rligida tinglovchilarga taqdim etilgan).

Keyinchalik kompozitor ushbu kuy asosida “Tanovar” simfonik poema (1940) va “Tanovar” baleti (1971)larini ijod etgan. “Tanovar” asosida Tolibjon Sodiqov xonanda va orkestr uchun asar, Mutal Burhonov “Endi sendek” ashulani jo‘rsiz xor uchun qayta ishlab, o‘ziga xos original asar yaratgan. Muxtor Ashrafiy va S.Vasilenkolarning “Bo‘ron” operasida ham “Tanovar” ashulasi qo‘llanilgan. A.Nabiyev “Tanovar”ni fortepiano uchun qayta ishlab o‘ziga xos asar yaratgan. “Tanovar” – o‘zbek san’ati va madaniyati ommaviy tus olgan asar bo‘lib, ko‘pgina

xonanda va sozandalar ijrochiligida, o‘zbek bastakorlari va kompozitorlari ijodidan o‘rin olgan.

“Tanavor”ning xalq so‘zi bilan ijro etiladigan “Qora soch”, “Adolcha tanovar”, “Sumbula”, Muqimiy g‘azali bilan “Endi sendek” kabi variantlari dutor jo‘rnavozligida talqin etilgan bo‘lib, keyinchalik uning mumtoz ashula, katta ashula va cholg‘u yo‘llari shakllangan. Tanavorning cholg‘u yo‘llaridan “Gulbahor” kuyi bilan ketma-ket ijro etiladigan “Gulbahor va tanavor”, katta ashula yo‘lida “Yovvoyiy tanovar” (“Asl yorim”), “Farg‘onacha tanovar”, “Qo‘qon tanovari”, “Marg‘ilon tanovari”, “Namangan tanovari” (Kamoliddin Raximov ijrosida), “Yangi tanovar” (“Sarbon” guruhi ijrosida), ashula bastakorlik ijodiyotida (“Ulkun jonon” – B.Mirzayev, “Yovvoyiy tanovar” – Jo‘raxon Sultonov, “Tanovarni tinglab” – A.Ismoilov), bugungi kunda xonanda Jo‘rabek Qodirov ijrosida tanovar usulida “Tanovar” qo‘shig‘i kabi lokal variantlari ijod etilib, xalqimiz orasida ommalashib ketgan. Shuningdek, “Tanovar”ning cholg‘u yo‘li dutor, tanbur, g‘ijjak, changda ijro etilgan, jumladan, “Qo‘qon tanovari” dutor uchun, “Turg‘un tanovari” dutor, tanbur va sato uchun, “Gulbahor va tanovar” chang uchun (Gulbahor kuyi “Dugoh-Husayniy IV” ohangi asosida ham ijod etilgan).

O‘lmas “Tanovar”lardan – “Endi sendek”, “Gulbahor va tanovar”, “Marg‘ilon tanovari”, “Qo‘qon tanovari”, “Farg‘onacha tanovar”lar zamonaviy madaniyat va san‘at rivojidan uzoqlashib, iste‘dodli xonanda va sozandalar, raqqos va raqqosalarimiz e‘tiboridan chetda qolib ketayotgani bizni tashvishga solmoqda.

Tanavor ashulalarida o‘zbek qizining ma‘naviy go‘zalligi o‘z aksini topgan. Shuningdek, unda o‘zbek qizining sevgilisi bilan uchrashish va visolga yetishi muqarrarligi aks ettiriladi. Shular ichida “Adolcha tanovar” o‘zgacha tarixga egadir.

Tadqiqotchi Iroda G‘aniyeva o‘zining “Tanovarlar” kitobida yozishicha, “...O‘tmishda Adolat ismli go‘zal, nixoyatda oqila va maxzun ovozi qiz bo‘lgan ekan. Uning honishini tinglagan xar bir inson yana bir tinglash ishtiyoqiga giriftor bo‘lar ekan. Qizning honishidan xabar topgan zamonasining zodagonlaridan birining ishqi Adolatga tushadi va o‘z maqsadiga erishish niyatida ko‘p harakat qiladi, lekin natijasiz qoladi. O‘z sevgisiga sodiq bo‘lgan Adolat zodagonga rad javobini beradi. Bundan xabar topgan zodagan qattiq ranjiydi va qizni qatil qilishga buyuradi. Adolat o‘limi oldidan oxirgi istagini ado etishlarini o‘tinib iltimos qiladi. Rozilik berilgandan so‘ng, u dutor keltirishlarini so‘raydi va unga dutor keltirib berishadi. Adolat dutorning sehrli torlarini chertib, kuylay boshlaydi qo‘shiqni tinglagan jallodlarning qurollari qo‘llaridan tushadi, dillarini eritgan oxang soxibasini o‘ldirishga qo‘llari bormaydi. Qalblarining amri bilan bu ishni bajarishdan bosh tortishadi. Shunda Adolatning zolim akasi qo‘liga qurol olib, singlisini o‘ldiradi. Paranchi ostida oxirgi

nafasda, o‘z sevgisiga sodiq qolgan Adolat: - “Sen ayrilma mendan, men ham sendan...” deb jon beradi. Uning aytgan qo‘shig‘i kishilar qulog‘ida qoladi. Xalq orasida kuylanib og‘izdan-og‘izga o‘tib, Adolatning musaffo sevgisi qo‘shiq misolida davom etadi”. Shu tariqa Adolatxon aytgan qo‘shiq xalq orasida keng tarqalib, “Adolat tanovari” deb nom olibdi. Bu ayollarning dardini tushunish uchun Adolatxondan qanchadan qancha zolimlar qo‘lida azob chekkan ichkarilarda zulmat qo‘ynida turgandek kun kechirgan yuzlab ayollar tilidan kuylangan erk qo‘shiqchilarning baxtga mushtiq istirob to‘la misralarini bilish, ularning o‘ziga xos ijro yo‘llaridan xabardor bo‘lish darkor.

NATIJALAR (PEZYJBTATY/RESULTS)

“Tanavor”ning xalq so‘zi bilan ijro etiladigan “Qora soch” ya’ni, “Adolcha tanovar” aslida barcha “Tanovar”ga yo‘l ochib umrboqiy qo‘shiqchilarning hazinasiga olib kirdi”. Jumladan, O‘zbekiston xalq hofizi 1948 yilda Jo‘raxon Sultonov sevib, yalla uslubida ijro etgan “Asl yorim” deb boshlanadigan “Yovvoyi tanovar”ning o‘ziga yarasha falsafiy ma’nosi bor. Uning “Yovvoyi tanovar” deyilishiga sabab u yovvoyi uslubda ijro etilgan. YA’ni, hofizlarimiz bu qo‘shiqni erkin, qalb nidolarining to‘laligicha va uni har tomonlama ochishga, bayon etishga harakat qilganlar. Bugungi kungacha “Yovvoyi tanovar”ni Ustoz hofizdan tashqari O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Nasiba Abdullayeva, Sherali Jo‘rayev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Abdulla Shomag‘rupov, xonandalar Boqijon Sattorov, Feruza Raximova ijro etishgan.

Tanovar kuyini yoki ashulasini tushunish emas uni faqatgina xis qilish mumkin xolos. Tanovar kuyini tinglagan inson sekin asta o‘yga cho‘madi, ashulasini eshitib esa qalbi o‘rtanadi ammo, “Tanovar” raqsini ko‘rganda butun badani dir-dir titray boshlaydi. Chunki bu erk qo‘shig‘i, qalb nolasi, yuraklar orzusidir. Kuyida eshitilsa, ashulasida xis qilinsa, raqsida esa o‘sha dard chekkan ayol ko‘riladi. Tanovar sevgini ochiq izxor etish haqidagi orzudir. Tanovar raqsi ham o‘ziga xos tarixga ega.

1930 yil Moskvada qo‘yilayotgan konsertlarning biriga taniqli o‘zbek raqqosasi Mukarrama Turg‘unboyeva ham tashrif buyuradi va u yerda ajoyib rus balerinasini Gelsler ijrosida “O‘layotgan oqqush” baletini ko‘radi bu balet Mukarrama Turg‘unboyevada juda katta taassurot qoldiradi, qalbini to‘lqinlantirib yuboradi, mashaqqatli mehnatda chidamli bo‘lishga undaydi. Shundan so‘ng Mukarramaxonim o‘zbek raqsida ham mana shunday o‘tli raqsni yaratishni va ijro etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Raqqosa Moskvadan qaytib kelishi bilan butun Farg‘ona vodiysi bo‘ylab kuyi, ohangi, mazmuni bilan bir-biriga o‘xshaydigan ayollar qo‘shig‘ini yig‘a boshladi va usta raqqosalar hamda qo‘shiqchilar bu o‘ziga xos ayollar qo‘shiq – raqs janrini “Tanovar” deb atashlarini aniqlaydi. Tanovar ustida u

juda ko‘p ishlaydi xar bir qo‘shiq mazmunini muntazam o‘rganib chiqadi va shu asosida 1943 yilda “Tanovar” raqsini yaratadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Asli tanovar so‘zi amaliy san’atdan kelib chiqqan va iste’molga kirib kelgan. Jumladan, xalq xunarmandchiligi kosibchilik amaliyotida xomashyo bilan ishlashining ilk jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, oddiy terini moslab (oshlab) berish bilan natijasida, masalan, tikilgan mahsi va kovushning yurganda g‘ich-g‘ich tovushlarini chiqishi “Tanovar” deyilgan. Bu fikrlarni O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, professor Temur Maxmudov ham ma’qullagan holda uni quyidagicha izoxlaydi: “Mening fikrimcha, Mukarrama opa o‘z raqsini “Tanovar” deb atashini sababi Farg‘ona vodiysida ayollar ijro etadigan kuy qo‘shiqlarning umumiy nomi “Tanovar” bo‘lganligi uchun emas, balki bu raqsning birinchi ijrosi vaqtida maxsi-kovush kiyib raqs ijro etilgan, ana o‘shanda maxsi-kovushning g‘irchillashi raqqosaga ritm berib turgan, shu davrlarda maxsido‘z kosiblar bu g‘irchillashni tanovar deb atashgan. Balki shu sababdan Mukarrama opa ham o‘z raqsini “Tanovar” deb atagan bo‘lsa ajab emas”.

Mukarrama Turg‘unboyeva 1943 yili sahnalashtirgan “Tanavor” raqsi bugungi kunda keng tarqalgan. U o‘z davrining va hozirgi kunda ham an’anaviy ijrosini saqlab kelayotgan “Tanavor” – raqs dostonidir. Bu raqs juda oddiy va yengil harakatlardan tashkil topganga o‘xshasa-da, undagi lirik qahramonning ruhiy olami, his-tuyg‘ulari, boy qalbi, nozik tebranishlari barchani maftun etib kelgan. U ham mazmunan, ham shaklan, ham ijro jihatidan boshqa raqslardan o‘zining jilosi bilan ajralib turgan.

“Har bir ijodkor san’atining jilg‘asi hisoblanadigan ixtirosi bo‘ladi, - deb yozgan edi atoqli shoiramiz Zulfiya, - Mukarramaxonimning ajoyib asarlari bor, lekin bu san’atkor ijodining, mening nazarimda jilg‘asi “Tanovar”dir. “Tanovar”ni hech kim, hech qachon, hech qayerda Mukarramaxonimdek latofat va nazokat, mahorat va dardli harorat bilan ijro etmagan”.

San’atshunoslik fanlari doktori Lyubov Abdeyeva ham o‘z estaliklarida “Tanovar” xaqida shunday yozadi. “Bu raqs – dildagi dardni izxor etuvchi, saodatni orzu qiluvchi, yolg‘izlikdan sevgilisi tomon, insonlar tomon intilishdek otashin ishtiyoq yashiringan qalb eshigini lang ochish raqsidir”.

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, Akbar Mo‘minov ta’kidlaganidek, - “Tanovar bu oddiy raqs emas uni xar kim ham ijro etaversa to‘g‘ri bo‘lmaydi. Mukarrama opa xayotlik davrlarida ham ko‘pchilik raqqosalar bu raqsni harakatlarini maxorat bilan ijro etishardi lekin, tomoshabinlarni Mukarrama opaning ijrosi qiziqtirardi. Negaki opa “Tanovar”ni ijro etishni boshlaganda butkul tashqi

olamni unutib, faqat shu raqs va uning dardi bilan yashardi. Opa bu raqsni ijro etib bo'lgach bir qancha vaqtgacha shu obrazdan chiqa olmasdi. Bunday ijro xar kimga ham nasib etavermaydi”.

Aslida asar nomi “doira usuli bo'lgan “tan-tan” (bum-bak) sadosidan olingan. “Tanovar” sho‘x doira usullariga asoslangan asar demakdir. Shu bois, “Tanovar” atamasi tantanavor tarzda talqin qilinmasligi kerak. Ana shunday ma'lumotlarni berish o'quvchilarning musiqa san'ati bo'yicha bilim va ko'nikmalarini kutilgan darajada rivojlantiradi.


Mukarrama opa o'zining “Bahor”i bilan dunyo kezdi. Undan juda katta madaniy-ma'rifiy meros qoldi. Bu xalq orasiga, ongi shuuriga singib ketgan bir-biridan go'zal va jozibali raqslardir. Ularning har birini shovullab oqayotgan daryoga qiyoslash, mahzun taralayotgan qo'shiqqa bezash mumkin. Opa yaratgan har bir raqsda o'zbek ayolining qalbi, dardi, orzu-armonlari, shodligiyu quvonchi, nafosati va nazokati, baxti va qudrati manaman deb bo'y ko'rsatib turadi. Shu bilan birga “Bahor”dan qolgan bu boy merosda Mukarrama Turg'unboyevaning ovozi, nafasi, yurak harorati sezilib turadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda tanovar yo'llariga ko'pgina o'zbek xonandalari va bastakorlari yondoshgan holda uning noyob va o'zgacha ijod va ijro talqinlarini yaratilishiga muvaffaqiyat bo'lishgan. Bu asar mazmunan, shaklan va o'zining kuychanligi, hayajonligi bilan ajralib turadi. Kuyning keng rivoji, ohanglar bezaklar bilan ko'proq boyitilishi, ohangning sadolanishi asarning ehtirosli, shirador va ta'sirchanligi chiqishi tinglovchiga zavq-shavq va xuzur baxsh etadi. Tanovarning mumtoz ashula yo'llarida yuqorida aytib o'tganimizdek, - o'zbek ayolining ma'naviy go'zalligi o'z aksini topgan.

Tanovarning boshlang'ich ohanglari, mustasnosiz, o'rta pardalarda joylashgan bo'lib, ijro jarayonida asta-sekin rivojlanib (kuy diapazoni kengayib), avj qismida o'zining ta'sirchanlik holatiga olib keladi. Unda tinglovchini ham, ijrochini ham hayajonli bir tuyg'uni his etishiga va ikkiyoqlama jonli va dardli xususiyat kasb etadi. Umuman olganda ashulaning har bir obrazi va har bir shakl tuzilmasi tarkibida insonning ma'naviy dunyosi o'z aksini topadi. “Tanovar” – bu musiqiy shakl va usulning hamda dutor sozi nomini ham bildiradi.

Tanavor o'zbek xalqi ongida tarix, o'zlik, ijtimoiy, hissiy, milliy o'ziga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etgan falsafiy asar bo'lib, bu ijod o'zbek xalqining og'zaki va kasbiy ijodiyoti faoliyatidir. Shuningdek, XIX asr oxirida o'zini namoyon qilgan va bugungi kungacha rivojlanib kelayotgan o'zbek musiqa folklorining namunalaridan biri.



Bugungi kunda barcha “Tanovar”larga bir tomonlama yondoshmasligimiz kerak. Ularda nafaqat o‘tmish hayotimizning og‘ir damlari, balki bir-biridan chiroyli va go‘zal orzu-niyatlari, hayot kechinmalari va jng shirin, lazzatli daqiqalari joy olgan. “Tanovar”larni o‘rganish jarayonida ma’lum bo‘lmoqdaki, ularning oxiri yo‘q ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Охунова Э. Биз сув ичган дарёлар. Рақс ҳам шеъриятдир. – Тошкент. Ўзбекистон. 2006. –Б. 6
2. Рахимов А. Мукаррамахоним “Тановар”и. –Тошкент: Мухаррир нашриёти. 2018. – Б. 43
3. Erkinjon o‘g‘li, L. A. (2024). SUYAK QADIG‘I HOSIL BÒLISH PATOLOGIYALARNI ERTANGI DAVRLARDA ANIQLASH VA DAVOLASH. YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 143-147.
4. Eminov, R. I., Latibjonov, A. E., G‘Ulomov, Q. Q., & Umarova, S. D. (2022). EVALUATION OF THE ROLE OF MULTIMEDIA IN TEACHING EMBRYOLOGY. Экономика и социум, (12-1 (103)), 59-62.
5. EMINOV, R., LATIBJONOV, A., G‘ULOMOV, Q. Q., & UMAROVA, S. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. ЭКОНОМИКА, 59-62.